



IMKONIYATI CHEKLANGANLARNI BANDLIK SOHASIDA IJTIMOIY HIMOYA QILISH

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy
fanlar fakulteti Ijtimoiy ish
yo`nalishi III bosqich talabasi
Ramazonova Gulzira Karimjon qizi
ramazonovagulzira22@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kundagi jamiyatimizda shunday toifa kishilari borki, ular o'z imkoiyat va salohiyatlarini ro'yobga chiqarish uchun alohida e'tibor berilishi kerak bo'lgan nogironligi bor shaxslardir. Ularning jamiyatda o'z o'rnini topa olishi ko'p jihatdan jamiyatning boshqa a'zolari va shu jamiyatdagi qonunlar va normativ hujjatlarga bog'liq. Bu maqolada shu masalalarni atroflicha yoritishga harakat qildik.

Kalit so'zi: nogironligi bo'lgan shaxslar, ishsiz, bandlikni ta'minlash, ijtimoiy himoya, ijtimoiy imtiyoz, sharoit plyus.

Аннотация: В нашем современном обществе есть такая категория людей, как люди с ограниченными возможностями, которым необходимо уделять особое внимание для реализации своих возможностей и потенциала. Их способность находить свое место в обществе во многом зависит от других членов общества и законов и нормативных актов в этом обществе. Мы постарались подробно осветить эти вопросы в этой статье.

Ключевое слово: лица с инвалидностью, безработные, обеспечение занятости, социальная защита, социальные льготы, условия плюс.

Annotation: In our society today there are people of such a Category who are persons with disabilities who need to be given special attention in order to realize their capabilities



and potential. Their ability to find a place in society largely depends on other members of society and the laws and normative acts in that society. We tried to cover these issues in detail in this article.

Keyword: persons with disabilities, unemployed, employment security, social protection, social benefits, plus conditions.

Bugungi kunda nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga moslashtirish, ularni ijtimoiy, kasbiy va tibbiy rehabilitatsiya qilish muhim ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi. Afsuski, nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha ishlash, ta'lim darajasini oshirish va jamiyat hayotida to'la qonli ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Aksariyat hollarda ular kamsitilish va "qo'li kaltalik"dan aziyat chekadilar. Albatta, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi eng katta mas'uliyat davlat zimmasiga tushadi. Ijtimoiy muammo davlat va jamoat tashkilotlari nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashishda qo'llab-quvvatlashi va mehnatga layoqatli nogironligi bo'lgan odamlarning ish bilan ta'minlanmasligi o'rtasidagi ziddiyatdir. Nogironlar mehnatidan foydalanish uchun nogironlarning ehtiyojlarini va mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan korxonalar, sexlar va uchastkalar tashkil etiladi. Ko'zi ojiz nogironlar sharoitlari o'z imkoniyatlariga mos keladigan ishlab chiqarishda ishtirok etishda imtiyozli huquqqa egalar.

Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra dunyoda 1 milliarddan ziyod kishida ya'ni dunyo aholisining 15%da nogironlikni u yoki bu turi kuzatiladi. Ularning 80% rivojlanayotgan davlatlarda yashaydi. Aksariyat rivojlangan davlatlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilishda birinchi navbatda ijtimoiy himoya yoki ijtimoiy imtiyozlar yaratish emas balki ularning bandligini, ya'ni ish bilan ta'minlash masalasi muhim o'rin tutadi. Shunisi ma'lumki dunyo bo'yicha jami nogironligi bo'lgan shaxslarning 2/3 qismi ma'lum darajada uy sharoitida, oddiy yoki maxsus yaratilgan ish o'rinlarida mehnat bilan shug'ullanish imkoniga ega. Afsuski ularning



nogironligi bo'lgan shaxslarning 3,5%ini I guruh, 55,8%ini II guruh va 40,7%ni III guruhdagilar tashkil etadi.¹

Nogironlarning ko'pchiligi ishga qodir – bu ijtimoiy haqiqatdir. Axir jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lib ulgurgan bugungi kundagi imkoniyati cheklangan ishsizlar jamiyatdan ancha uzoqlashganlar. Bu esa kelajakda bir qancha muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Hayotimizda bandlik juda muhim o'rin egallaydi aholining hamma qatlamini shu jumladan nogironligi bor shaxslarni ham ish bilan ta'minlanmasligi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Buning uchun bizlar nogironlarni ham jamiyatimizga qo'shilishida muhim ahamiyat kasb etamiz. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Aholi bandligi to'g'risida” gi qonunda nogironlarni ish bilan ta'minlashga oid quyidagicha bandi aynan keltirib o'tganlar “2018- yil 1-yanvardan boshlab faoliyat ko'rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat'iy nazar I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun 1 oyda bazaviy hisoblash miqdorining 50% miqdori, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hisobidan ishga yollangan har bir ishchi uchun 1 oyda ba'zaviy hisoblash miqdorining 15% miqdorida qat'iy belgilangan soliq kvotasi o'rnatilsin”². Shu jumladan shuni ham e'tiborga olish kerakki, bugungi kungacha ham nogironligi bor shaxslarni ish bilan ta'minlash bo'yicha bir qancha chora tadbirlar, ularning bu boradagi savollariga javob olishlari mumkin bo'ladigan jamg'armalar tashkil qilingan. “Sharoit plyus” nogironlar jamoat birlashmasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. “Sharoit plyus” nogironlar jamoat birlashmasi nogironligi bo'lgan shaxslarni munosib ish bilan ta'minlash uchun onlayn platformani ishga tushurdi. Ushbu loyihaning hamkorlari Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi va YaXHT. Loyiha BMTning ijtimoiy himoyani mustahkamlash qo'shma dasturi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. “Sharoit plyus”

¹ Международный форум «Духовно-нравственные основы общества в Системе социальной поддержки детства и семьи». Сборник материалов.

² <https://lex.uz/docs/-3290912> “Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi”da O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoyishi 2017-yil 1-avgust F-5006-son.



nogironlar jamoat birlashmasi nogironligi bo'lgan shaxslarni ochiq mehnat bozorida munosib ish bilan ta'minlash uchun **ishplus.uz** maxsus rekruting veb portali ishga tushirildi.³

Ushbu portalning asosiy vazifasi:

- bir tomondan: mehnatga layoqatli va ish izlashda qiynalayotgan nogironligi bo'lgan shaxslarga ish topishda yordam berish;
- ikkinchi tomondan: ish beruvchilarga malakali nogironligi bo'lgan xodimlarni topishda ko'maklashish.

Bundan tashqari portal ish beruvchilarga nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilishda berilgan imtiyoz va preferensiyalar to'g'risida maslaxat xizmatlarini ko'rsatgan holda ularni maxsus vakansiyalarni ochishga undaydi. Loyiha koordinatorlari ish beruvchilarning qonunga muvofiq 3% kvotani amalga oshirish majburiyatlari bo'yicha batafsil tanishtiriladi. Biz bilamizki, deyarli har oyda ma'lum bir ishsizlikni oldini olish maqsadida mehnat yarmarkalari bo'lib o'tadi, ammo u yarmarkalar sog'lom ishsiz yoshlar uchun hisoblanadi. Ushbu mehnat yarmarkalarida nogironligi bo'lgan shaxslar ochiq mehnat bozorida turli xil to'siqlarga uchramoqdalar. Chunki, nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash borasida qabul qilingan qonun va normativ hujjatlar amalda samarasiz bajarilayotganligidandir. Masalan, "Xodimlarning soni 20 kishidan ortiq bo'lgan korxonalarda, muassasalar va tashkilotlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironlarni ishga joylashtirish uchun xodimlar sonining kamida 3% miqdorida ish joylarining eng kam sonini belgilaydi va zaxirada saqlaydi. Nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam sonini yaratish bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini ijro etilmaganligi uchun korxona, muassasa va tashkilotga har bir yaratilmagan ish joyi uchun ana shu korxona, muassasa va tashkilot xodimining o'rtacha yillik ish haqqi miqdorida jarima

³ [https://sharoitplus.uz/nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat qilish muammosi/](https://sharoitplus.uz/nogironligi-bo'lgan-shaxslarning-mehnat-qilish-muammosi/)



solinadi”⁴. Ammo, amalda nogironligi bo’lgan shaxslar uchun 3% kvota ishlamayapti va ko’p korxonalar bundan bexabardir.

AQSh va Buyuk Britaniya davlatlarida nogironligi bo’lgan shaxslarni ishga joylashtirishning majburiy mexanizmlari qo’llanilmaydi, ammo mazkur davlatlar qonunchiligida nogironligi bo’lgan shaxslarning ishga joylashishlari uchun boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, nogironligi bo’lgan shaxslarning ish beruvchi bilan suhbat olib borishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan bo’lishi kerak, shuningdek, ko’zi ojiz nogironligi bo’lgan shaxslar uchun ham, nogironligi bo’lgan shaxslarning shaxsiy hayotlariga aloqador ma’lumotlarni so’rab olish taqiqlanadi ayrim hollarda hattoki nogironligi to’g’risidagi ma’lumotnomani so’rab olishga ham yo’l qo’yilmaydi. Buni natijasi shundaki nogironligi bor shaxslarning jamiyatdagi o’rni sog’lom odamlar bilan teng ekanini yaqqol dalili hisoblanadi. Aynan shuni bugungi kundagi jamiyatimizda qo’llash nazarimda salmoqli darajada nogironligi bo’lgan shaxslarning o’rtasidagi ishsizlikni kamaytirishga hissa qo’shadi.

Aksariyat rivojlangan davlatlarda Shvetsariya, Avstriya, Fransiya, Koreya, Italiya, Rossiya va shu jumladan, O’zbekistonda ham nogironligi bo’lgan shaxslarni ishga joylashganligidan qat’iy nazar pensiya to’lovining saqlab qolinishi ularning ishga joylashishlari uchun eng muhim rag’batlantiruvchi mexanizmlardan biri hisoblanadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Norvegiya singari davlatlarda nogironligi bo’lgan shaxslar ishga joylashganlaridan keyin pensiya 3 oydan 3 yilgacha to’lab borilib, uning oqilona ishga joylashganligi va o’z ishiga to’liq moslashganligidan keyin pensiya to’lovi to’xtatiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O’zbekistonda aholini ijtimoiy mohofaza muhtoj qatlamlarni, ya’ni nogironligi bo’lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish zarur:

⁴ Karimov I.A. "O’zbekiston XXI asrga intilmoqda". Birinchi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 14-sessiyasidagi ma’ruzasi. 1999yil 14-aprel



1. bandlik masalasini monitoring qilish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, tahlil qilish, natijalarni baholash;
2. huquqiy masalalar yuzasidan davlat va nodavlat tashkilotlari xodimlarining malakalarini birgalikda oshirish;
3. kadrlarni to'g'ri tanlash bo'yicha jamoat kengashlarining asosiy qismiga nodavlat tashkilotlari hamda jamoatchlikda bo'lganlarni jalb qilish;
4. nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlash;
5. ularni ijtimoiy -maishiy xizmat ko'rsatish chora -tadbirlarini yanada takomillashtirishda barchaning faolligiga asoslangan yondashuv imkoniyatlaridan kengroq foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Международный форум «Духовно-нравственные основы общества в Системе социальной поддержки детства и семьи». Сборник материалов. -Ташкент 2012.- С.116.
2. <https://lex.uz/docs/-3290912> “Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi”da O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoyishi 2017-yil 1-avgust F-5006-son.
3. [https://sharoitplus.uz/nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat qilish muammosi/](https://sharoitplus.uz/nogironligi-bo'lgan-shaxslarning-mehnat-qilish-muammosi/)
4. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 14-sessiyasidagi ma'ruzasi. 1999-yil 14-aprel.